



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№5



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 206 sahifa.
E'lon qilishga 2025-yil 1-mayda ruxsat etildi.*

Bosh muharrir o'rinbosari:
Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:
Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoira Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

- Salimov Okil Umrzokovich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukxonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhmatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Khusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Rakhimovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridakhon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

“Zavur kollektor suvlarining kimyoviy tarkibi tahlili va ularni tozalash zarurati (Qoraqalpog‘iston Respublikasi misolida)”.....	20
Kungiratbay Sharipov, Ma‘ruf Nurmanov	
Forming demand and stimulating sales in Uzbekistan.....	26
Musayeva Shoirazimovna	
Членство в ВТО как драйвер развития: взгляд Узбекистана через призму опыта Вьетнама и Казахстана.....	30
Ж.Я.Нуриллаев	
Mamlakatimizda tizimli ahamiyatga molik banklarni aniqlash tartibi va ularning bank tizimi moliyaviy barqarorligiga ta‘sirini tahlili.....	37
Xolmamatov Farhodjon Kubaevich	
O‘zbekiston respublikasida aholi bandligini ta‘minlashdagi dolzarb masalalar	44
Ibragimov Elmurod Gulboynor o‘g‘li	
O‘zbekiston respublikasida elektr energiyasi ta‘minoti hajmini yalpi ichki mahsulot hajmiga ta‘sirini ekonometrik tahlil qilish.....	48
Fayziyev Rabim Alikulovich	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida tijorat banklarining xizmat turlarini takomillashtirish amaliyoti	60
Umurzoqova Adiba Ochilovna	
Qishloq xo‘jaligi kooperativi boshqaruv tizimida buxgalteriya hisobini tashkil qilishning o‘ziga xos xususiyatlari	67
Abduraxmanov Ramazon Abdullayevich	
O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari umumiy hajmini prognozlashda ekonometrik modellar (yillik)	72
Qodirov Farxod Amirovich, Bo‘ribaeva Qundiz Muratbaevna	
Oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi tizimini takomillashtirishning nazariy va amaliy jihatlari.....	77
Mahamatova Maftuna	
Xufiyona va yashirin iqtisodiyotning amaliy tahlili o‘zbekiston miqyosida.....	83
Koshanov Abdimurat Azat uli	
Soliq tizimini barqarorligini belgilovchi omillar tahlili.....	87
Nurillayev Jasurbek Davronbekovich	
Mahalliy budjetlar daromad manbalarini mustahkamlash omillari.....	92
Soatova Nodira Boboxanovna	
Bank infratuzilmasining raqamli transformatsiyasi va resurslar bazasi shakllanishi: nazariy asoslar va texnologik yondashuvlar.....	97
Raxmatov Azizjon Jaloliddinovich, Jumayev Muzaffar Mahmud o‘g‘li	
Ichki auditning transformatsion potentsiali: tahliliy amallarni takomillashtirish orqali samaradorlikni oshirish.....	102
Misirov Akbarali Pardaboyevich, Ismoilov Asadbek Abdusamat o‘g‘li	
Xorijiy mamlakatlarda yashil moliyalashtirishni rivojlantirish yo‘llari.....	110
Qorriyeva Shahnoza Safarbayevna	
Yashil moliya – iqtisodiy rivojlanish mexanizmi sifatida	117
Nodir Xidirov G‘iyosaliyevich	
Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning likvidiligi va moliyaviy barqarorligini ta‘minlashning xorij tajribasi va uning amaliy ahamiyati	122
Bauyetdinov M.J.	
Теоретические подходы к определениям агрессий социально - экономической и политической стабильности государства как фактор повышения рекреационных потребностей	128
Алимова Райхона Баходировна	
Innovatsion ta‘lim texnologiyalari asosida talabalarning metodik tayyorgarligini shakllantirish.....	139
Komilov Umidjon Normurod o‘g‘li, Tulyaganova Gulnoza Olimjon qizi	



QISHLOQ XO'JALIGINI BARQAROR RIVOJLANTIRISH VA EKOLOGIK TOZA HUDUDNI YO'LGA QO'YISHNING AHAMIYATI

Ergashov Ulug'bek Zoxidjonovich

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti Samarqand kampusi
"Iqtisodiyot va muhandislik fanlari" kafedrası assistenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada ekologik toza hududlarda qishloq xo'jaligining bog'dorchilik tarmog'i asosida iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish masalasi yoritilgan. Bog'dorchilik tarmog'ining atrof-muhitni muhofaza qilish va iqtisodiy o'sishni ta'minlashdagi o'rni tahlil qilingan. Shuningdek, intensiv bog'lar tashkil etish orqali oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish mexanizmlari ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: qishloq xo'jaligining barqaror rivojlanishi, ekologik toza hudud, intensiv bog'lar, oziq-ovqat mahsulotlari, atrof-muhitning ifloslanishi.

Abstract: This article addresses the issue of sustainable economic development based on the horticultural sector of agriculture in environmentally clean areas. The role of horticulture in environmental protection and ensuring economic growth is analyzed. It also highlights mechanisms for rational use of natural resources and achieving food security through the establishment of intensive orchards.

Key words: Sustainable development of agriculture, Ecologically clean area, intensive gardens, food products, environmental pollution.

Аннотация: В данной статье освещается вопрос устойчивого развития экономики на основе садоводческого сектора сельского хозяйства в экологически чистых регионах. Проанализирована роль садоводства в охране окружающей среды и обеспечении экономического роста. Также рассмотрены механизмы рационального использования природных ресурсов и обеспечения продовольственной безопасности через создание интенсивных садов.

Ключевые слова: Устойчивое развитие сельского хозяйства, экологически чистая территория, интенсивные сады, продукты питания, загрязнение окружающей среды.

KIRISH

XX asrning ayniqsa so'nggi o'n yilliklarida insoniyat tabiatni o'z ehtiyojlariga bo'ysundirish harakatida unga bog'liqligini deyarli unutdi. Natijada, hayotni ta'minlovchi tabiiy tizimlar izdan chiqib, ularning yemirilishi tobora kuchayib bormoqda. Ekologik va gumanitar inqirozlar soni ortib, atrof-muhitning buzilishi hamda tabiiy resurslarning kamayishi global sur'atda davom etmoqda. Yer sayyorasi inson faoliyatining texnogen bosimidan charchamoqda, chunki zamonaviy jamiyatning barcha jabhalari energiyaga tayanadi. Energiya manbalarini qondirishga qaratilgan harakatlar esa ko'pincha yangi ekologik muammolar va sanoat chiqindilarining paydo bo'lishiga olib kelmoqda.

Urbanizatsiya, intensiv qishloq xo'jaligi va sanoat faoliyati natijasida suv va havo resurslari ifloslanmoqda. Suv havzalariga zararli moddalarning tushishi, tuproqning eroziyaga uchrashi va sho'rlanishi, havodagi zararli gazlar miqdorining ortishi ekologik muvozanatni buzmoqda. Bularning barchasi oziq-ovqat mahsulotlarining sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatib, ularning tarkibida radionuklidlar, zaharli kimyoviy birikmalar, mikroorganizmlar va boshqa zararli moddalarning ortib borishiga sabab bo'lmoqda. Shunday muhitda yashayotgan insonlarning salomatligi jiddiy xavf ostida qolmoqda: kasalliklar ortmoqda, umr davomiyligi qisqarmoqda, genetik o'zgarishlar esa ko'paymoqda.

Antropogen ta'sir, ekologik holat va inson salomatligi o'rtasidagi murakkab aloqalar iqtisodiy tizimning o'zi bilan ham bevosita bog'liqdir. Tabiiy resurslardan me'yorida ortiq foydalanish, ayniqsa tiklanmaydigan resurslarni haddan tashqari ekspluatatsiya qilish, iqtisodiy zararlar va ekologik inqirozlarni keltirib chiqarmoqda. Natijada, antropogen yuklama sivilizatsiyaning barqaror rivojlanishini xavf ostida qoldiradigan darajaga yetmoqda.

O'zbekiston va boshqa ko'plab davlatlarda qishloq xo'jaligi sohasida ishlab chiqarish xarajatlari, ayniqsa energiya xarajatlari, barqaror ortib bormoqda. O'simlikchilik va chorvachilikning intensiv usullari bir qator salbiy oqibatlariga olib kelmoqda: tuproq qatlamining fizik va kimyoviy tarkibi yomonlashmoqda, ifloslanish



chuqurlashmoqda. Nitratlar, pestitsidlar va boshqa kimyoviy moddalar oziq-ovqat mahsulotlari orqali inson organizmiga kirib, sog'liq uchun xavf tug'dirmoqda.

Begona o'tlar va zararkunandalarning pestitsidlarga chidamliligi ortib, genetik xilma-xillik yo'qolib bormoqda. Agrokimyoviy moddalarning yer osti va yer usti suvlariga tushishi, sug'orish suvlarining tanqisligi ekologik izolyatsiyani kuchaytirmoqda. Bundan tashqari, baliqlar, hasharotlar va boshqa yovvoyi hayvonlarning yashash hududlari qisqarib bormoqda, ularning soni kamaymoqda. Atmosferadagi karbonat angidrid miqdorining ortishi esa global iqlim o'zgarishlariga turtki bermoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Iqtisodiy adabiyotlarda klaster – bu hududiy jihatdan yaqin joylashgan, texnologik jihatdan o'zaro bog'langan yetkazib beruvchilar, asosiy ishlab chiqaruvchilar hamda mahsulot iste'molchilari o'rtasidagi ixtisoslashgan hamkorlik tizimi bo'lib, u tarmoq yondashuviga qarshi alternativ shakldagi sanoat birkmasi sifatida talqin etiladi. Bu yondashuv ilk bor Alfred Marshallning 1890-yilda chop etilgan "Iqtisodiyot prinsiplari" asarida bayon qilingan bo'lib, unda muallif muayyan hududlarda o'zaro bog'langan tarmoq-sohalarning tabiiy uyg'unlashuvi g'oyasini ilgari surgan.

"Klaster" atamasining iqtisodiy termin sifatida ilmiy muomalaga kirib kelishi amerikalik iqtisodchi Maykl Porter nomi bilan bog'liq. Uning ta'rificha, klaster – bu bir sohada faoliyat yurituvchi kompaniya va institutlarning geografik jihatdan yaqin, ammo tarmoqlararo integratsiyalashgan shaklidir. Porterning dastlabki misollaridan biri – Italiyadagi poyabzal sanoatida kichik va o'rta korxonalarining tizimli birlashmasidir. U klasterlarni ichki me'yorlari, o'zaro ta'sir tamoyillari hamda maxsus submadaniyati mavjud tuzilma sifatida qadimgi hunarmandlar gildiyalari bilan qiyoslagan.

Shuningdek, rus tadqiqotchisi A.V. Glotko agrosanoat sohasida klasterlarning aniq ta'rifini bergan. Uning fikricha, agroklaster – bu texnologik zanjir asosida birlashtirilgan, o'zaro manfaatli iqtisodiy aloqalarni amalga oshiruvchi, innovatsion yo'nalishga ega va muayyan hududda shakllangan integratsion tuzilma bo'lib, u ishtirokchilarning hamkorlik madaniyatiga tayanadi.

Jahon miqyosida oxirgi yillarda agrosanoat klasterlarining ichki tarkibida bog'dorchilik klasterlari alohida e'tibor bilan rivojlanmoqda. Ularning samarali faoliyat yuritishi uchun mavjud klasterlarni toifalarga ajratish va ularning xususiyatlarini aniqlashtirish zarurdir. Klaster modelini shakllantirishda asosiy strategik komponent – bu uning yadrosi sanaladi. Mazkur yadro deganda, raqobatdosh ustunlikka ega bo'lgan sanoat, innovatsion tizim, infratuzilma yoki resurslar nazarda tutiladi. Yadro salohiyatining to'liq ochilishi esa ushbu soha bilan bog'langan boshqa iqtisodiy birliklarning integratsiyalashuvi orqali amalga oshadi va bu esa klasterning mintaqaviy raqobatbardoshligini oshiradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda atrof-muhit ifloslanishini kamaytirish va bog'dorchilik klasterlarining rivojlanish istiqbollari o'ldirilmagan takliflar ishlab chiqildi. Ma'lumotlar yig'ishda kuzatuv, tanlab olish, so'rovnomalar o'tkazish, shuningdek, ilmiy-nazariy va empirik tahlil uslublaridan foydalanildi.

Qishloq xo'jaligi sohasida texnogen rivojlanishni cheklovchi uchta asosiy omil ajratib ko'rsatiladi: ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy. Hozirgi ekologik muammolar, avvalo, qishloq xo'jaligi yerlari sifatining yomonlashuvi bilan bog'liq. Milliy iqtisodiyotda tabiat resurslaridan foydalanuvchi tarmoqlar, xususan, qishloq xo'jaligi uchun har yili yetarlicha mablag' yo'naltirilishi lozim. Tabiiy resurslarning kamayishi esa mavjud resurslardan samarali foydalanish yoki yangi manbalarni o'zlashtirishni talab qiladi, bu esa katta hajmdagi kapital qo'yilmalar bilan bog'liq. Shu sababli, hozirgi bosqichda qishloq xo'jaligini va umuman iqtisodiyotni ekologik va insoniy omillarni inobatga olgan holda, resurslarni tejoychi tamoyillar asosida rivojlantirish eng muhim ustuvor vazifalardan biridir.

Ekologik va iqtisodiy muammolarning keskinlashuvi ijtimoiy ziddiyatlarning chuqurlashuviga olib keladi. Bugungi kunda tabiat va inson o'rtasidagi nozik muvozanatni saqlash ehtiyotkorlik bilan yondashuvni, tabiiy resurslardan muvozanatli foydalanishni, oqilona iqtisodiy siyosat yuritishni va investitsiya oqimlarini to'g'ri yo'naltirishni talab qilmoqda.

TAHLIL VA NATIJALAR

Hududning raqobatbardoshligini oshirish va uni global iqtisodiy makonga muvaffaqiyatli integratsiyalash maqsadida mintaqani jahon mehnat taqsimoti tizimiga jalb etish, ilg'or xorijiy tajriba asosida rivojlanish mexanizmlarini tatbiq etish, zamonaviy texnologiyalarni olib kirish va ularni mahalliy sharoitga moslashtirish zarurdir. Ayniqsa, mehnatni tashkil etish va boshqarish tizimida inson omilini faol ishtirok ettirish, kasbiy iqlimni yaxshilash, qulay mehnat sharoitlarini yaratish bugungi kunda ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida qaralmoqda.



Shu bilan birga, barcha faoliyatlar ekologik barqarorlik tamoyillariga muvofiq amalga oshirilishi, tadbirkorlik uchun atrof-muhitga zarur yetkazmaydigan, barqaror va qulay shart-sharoitlar yaratilishi lozim.

Hududiy rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga quyidagilar kiradi: suv resurslaridan oqilona foydalanishga asoslangan energiya manbalarini kengaytirish; agrosanoat va o'rmon xo'jaligi sohasida xomashyolarni chuqur qayta ishlovchi tarmoqlarni yaratish va ularning logistika tizimini mustahkamlash; mahsulotlarni saqlash, qayta ishlash va eksportga tayyorlashni tashkil etuvchi zamonaviy infratuzilmani joriy etish; madaniyat muassasalarining moddiy-texnik bazasini takomillashtirish; arxeologik va tarixiy meros obyektlarini asrash bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish. Shuningdek, xalqaro va ekologik turizm, shu jumladan agroturizm, alpinizm va sport turizmini rivojlantirish orqali hududning iqtisodiy salohiyati va ijtimoiy faolligi oshiriladi.

"Ekoregion" atamasi, bir tomondan, tabiat va inson uyg'unligiga asoslangan, o'zaro muvozanatli munosabatlarga ega bo'lgan makon sifatida tushuniladi. U barqaror iqtisodiy faoliyat, ekologik xavfsizlik va ijtimoiy uyg'unlikni ifodalaydigan kelajak jamiyatining eksperimental modelini yaratish uchun muhim sinov maydoniga aylanadi. Bunday yondashuv barqaror va xavfsiz iqtisodiy faoliyatni tashkil etish imkonini beradi.

Boshqa tomondan, "ekoregion" tushunchasi xalqaro e'tirofqa sazovor bo'lgan, o'zida betakror tabiiy landshaftlar, tarixiy, madaniy va diniy meros obyektlarini mujassamlashtirgan noyob hudud sifatida qaraladi. Ushbu yondashuv mintaqaning noyob tabiiy resurslari va hozircha to'liq ishga solinmagan ekologik salohiyatidan samarali foydalanish imkonini beradi. Shu boisdan ham investitsion faoliyat, eng avvalo, bog'dorchilik yo'nalishida ixtisoslashgan ekologik-iqtisodiy makon – klasterlashgan rayonni shakllantirishga qaratilishi kerak. Bu nafaqat hududiy agrokomplekslarni rivojlantirishga, balki umuman mamlakat iqtisodiyotining barqaror o'sishiga xizmat qiladi.

Barqaror rivojlanish konsepsiyasi dunyo hamjamiyatida keng qo'llanila boshlagan va xalqaro siyosiy, ilmiy hamda jamoatchilik doiralarida asosiy strategik yo'nalish sifatida qaror topgan. Bu konsepsiya ilk bor Birlashgan Millatlar Tashkilotining Atrof-muhit va rivojlanish bo'yicha konferensiyasi (UNCED)da rasmiy ravishda ilgari surilgan. Konferensiya yakunida qabul qilingan "XXI asr Harakatlar kun tartibi" nomli xalqaro strategik hujjat global iqtisodiyotni barqaror rivojlanish yo'liga o'tkazishni nazarda tutadi hamda bu borada barcha davlatlar uchun harakatlarning umumiy yo'nalishini belgilab berdi.

Barqaror rivojlanish tushunchasi – bu bugungi avlodning ehtiyojlarini qondirgan holda, keyingi avlodlar uchun ham shunga o'xshash imkoniyatlar va resurslar mavjud bo'lishini ta'minlovchi ijtimoiy-iqtisodiy yondashuvni anglatadi. Mazkur konsepsiya bir nechta asosiy tamoyillarni o'z ichiga oladi. Avvalo, qayta tiklanadigan tabiiy resurslar miqdori yoki ularning tabiiy tiklanish salohiyati pasaymasligi, hech bo'lmaganda oddiy qayta ishlab chiqarish darajasida saqlanishi lozim. Shuningdek, tiklanmaydigan resurslardan foydalanish sur'atlari ularni muqobil, barqaror energiya manbalari bilan almashtirish istiqbollari hisobga olgan holda keskin cheklanishi kerak.

Barqaror rivojlanish konsepsiyasi doirasida chiqindilarni kamaytirish maqsadida kam chiqindili, energiyani tejovchi texnologiyalarni keng joriy etish zarur bo'ladi. Shu bilan birga, ekologik ifloslanishning darajasini ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan maqbul me'yorlar darajasigacha tushirish ham dolzarb masala sifatida ko'riladi.

Rio-de-Janeyro shahrida o'tkazilgan BMT sammitidan so'ng O'zbekiston ham bu g'oyalarga faol qo'shila boshladi. Xususan, "O'zbekiston Respublikasining barqaror rivojlanishga o'tish kontsepsiyasi" ishlab chiqildi va qabul qilindi. Ushbu hujjatda asosiy maqsad sifatida ekologik salohiyatni saqlagan holda hozirgi va kelajak avlodlarning ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlarini ta'minlash belgilandi. Bu yondashuv O'zbekiston Respublikasi Ekologik harakatining strategik hujjatlarida ham o'z aksini topgan.

Barqarorlik tamoyillari ayniqsa qishloq xo'jaligi sohasida alohida ahamiyatga ega. Chunki ushbu sektor aholining oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda, turmush sifatini yaxshilashda va iqtisodiy barqarorlikni kafolatlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. 1996-yilda Rim shahrida BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti tomonidan e'lon qilingan yondashuvga ko'ra, barqaror qishloq xo'jaligi va qishloqlarni rivojlantirish dasturining asosiy maqsadi – yuqori sifatli mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish va global oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlashdan iborat.

Bu yo'nalishda quyidagi chora-tadbirlar muhim o'rin tutadi: aholining ekologik va iqtisodiy savodxonligini oshirishga qaratilgan ta'lim dasturlarini kengaytirish, innovatsion g'oyalarni amaliyotga joriy qilish, ilg'or texnologiyalarni ishlab chiqarish tizimlariga tatbiq etish, tovar ishlab chiqaruvchilarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ishsizlik darajasini kamaytirish, barqaror daromad manbalarini shakllantirish, tabiat resurslaridan oqilona foydalanish hamda ekologik xavfsizlikni ta'minlash.

Qishloq xo'jaligining barqaror modeli – bu innovatsion texnologiyalarni qo'llash, resurslarni samarali boshqarish va ekologik muvozanatni saqlagan holda, hududiy xususiyatlarga moslashgan tizimdir. Ushbu tizim ishlab chiqarish, ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik elementlardan iborat bo'lib, ularni quyidagilar tashkil etadi: barqaror hosildorlik ko'rsatkichlari, o'simliklarning kasalliklarga va zararkunandalarga nisbatan chidamliligi, qishloq xo'jaligi korxonalarining moliyaviy mustahkamligi, aholi daromadlarining barqarorligi, qishloq hududlarining kompleks rivojlanishi, tabiiy landshaftlarning saqlanishi, energiyani tejovchi texnologiyalarni



qo'llash, innovatsion mexanizmlarning joriy etilishi, biologik resurslardan ehtiyotkorlik bilan foydalanish va turizmning barcha turlarini (xususan, sport turizmi va sog'lomlashtirish yo'nalishlari) rivojlantirish.

Barqaror qishloq xo'jaligi, shu bilan birga, qishloq joylarda bandlik darajasini oshirish, ijtimoiy va madaniy infratuzilmani rivojlantirish, maishiy sharoitlarni yaxshilash, professional mehnat salohiyatidan samarali foydalanish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish orqali mehnat unumdorligini ko'paytirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, uy-joy bilan ta'minlash, aholi turmush darajasini ko'tarish, ekologik xavfsizlikni ta'minlash, yer unumdorligini oshirish, o'simlik va hayvonot dunyosi genofondini saqlash, hamda tabiiy ekotizimlarning ifloslanishidan himoya qilish barqaror rivojlanishning asosiy yo'nalishlari sifatida e'tirof etiladi.

Boshqa muhim vazifalar – tuproq va resurslarning tabiiy unumdorligini tiklash, xomashyo yo'qotilishini kamaytirish, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini va sifatini oshirish, ularni doimiy ravishda optimal darajada ushlab turish va ichki bozorni ta'minlashga xizmat qiladi. Barqaror rivojlanish iste'molchi ehtiyojini qondirishga, talab-taklif nisbati muvozanatini saqlashga, sanoatning rentabelligi orqali iqtisodiy barqarorlikka erishishga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasining 01.04.2021 yildagi "Tomorqa xo'jaligi to'g'risida"gi O'RQ-681-son[□] Qonunida esa tomorqa egalari faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, meva-sabzavotchilik klasterlari bilan hamkorlik qilish va kooperatsiyalarga a'zo bo'lishga ko'maklashish bilan bog'liq yangi qoidalar belgilab qo'yildi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekistonning tabiiy resurslaridan samarali foydalanish va mamlakat hududlarini ekologik jihatdan toza hududlarga aylantirishga erishish, avvalo, qishloq xo'jaligi va butun agrosanoat majmuasining barqaror rivojlanishiga asoslangan, ilmiy yondashuvlar bilan boyitilgan kengaytirilgan takror ishlab chiqarish tizimi orqali amalga oshirilishi mumkin. Bu jarayonda intensiv va innovatsion ishlab chiqarish metodlarini joriy qilish muhim o'rin tutadi.

Qishloq xo'jaligi korxonalarining faoliyatini modernizatsiya qilishda ilm-fan, texnika va ilg'or amaliy tajribalarning kompleks qo'llanilishi alohida ahamiyatga ega. Tabiiy va texnogen resurslardan oqilona foydalanish, mahsulot ishlab chiqarish salohiyatini oshirish, sanoat sohasini ilmiy asoslangan holda tanlash, ularning miqdori, hajmi va kombinatsiyasini optimallashtirish orqali boshqaruv samaradorligini ta'minlash zarurdir.

Hududiy imkoniyatlar nuqtayi nazaridan olib qaraganda, jumladan Samarqand viloyatining meva-sabzavotchilik, rezavorlar yetishtirish, tarixiy obidalar va turizm resurslariga boyligi bog'dorchilikni intensiv asosda rivojlantirish uchun katta salohiyatga ega. Har bir tuman yoki qishloq miqyosida mevali bog'lar tashkil etilishi atrof-muhitni sog'lomlashtirish, iqlimni yumshatish va ekologik barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Davlat rahbari tomonidan ilgari surilgan "O'zbekiston qishloq xo'jaligining kelajagi – ilm-fan va innovatsiyalar bilan bog'liq" degan g'oya ushbu yo'nalishdagi yondashuvlarning nazariy asosiga aylanmoqda. Aynan klaster asosidagi agro-iqtisodiy tizimlar orqali aholi daromadlarini oshirish, bandlik darajasini ko'tarish, qishloq xo'jaligi tarmoqlarini diversifikatsiya va modernizatsiya qilish uchun real imkoniyatlar yaratiladi.

Masalan, paxta va g'alla maydonlarini mos ravishda 33,6 ming va 40 ming gektarga qisqartirish hamda qo'shimcha 320 ming gektar yer maydonini qayta foydalanishga yo'naltirish evaziga oziq-ovqat va ozuqa ekinlari maydoni 193,6 ming gektarga kengaytirildi. 2021-yil 1-apreldan boshlab esa Bog'dorchilik va issiqxona xo'jaligini rivojlantirish agentligi tomonidan Qoraqalpog'iston Respublikasi va barcha viloyatlarda tuman hokimliklari zaxirasidagi 300 gektargacha bo'lgan yer maydonlarida plantatsiya usulida intensiv bog' va tokzorlar tashkil etish ishlari boshlab yuborildi. Bu bog'lar aholiga 7 yil ichida to'liq to'lash sharti bilan sotish tizimi orqali taqdim etilmoqda.

Shu sababli, viloyatlarda zamonaviy agrosanoat korxonalari, bog'dorchilik klasterlari hamda mahsulotlarni saqlash va qayta ishlashga ixtisoslashgan agroklastar xo'jaliklarini barpo etish bugungi kundagi ustuvor vazifalardan biridir. Ushbu klasterlar tarkibida energiya tejamon texnologiyalar, biologik ko'paytirish usullari, zamonaviy marketing va logistika tizimlari, qayta ishlash uskunalari, hamda malakali kadrlar tayyorlash tizimi mavjud bo'lishi zarur.

Hududlarda barpo etilayotgan mevali bog'lar ekologik barqarorlikka bevosita hissa qo'shadi va yashil makonlar tizimini kengaytirish uchun muhim asos bo'ladi. Mevali daraxtlarning quyidagi ekologik va iqtisodiy foydalari mavjud:

Havodagi zararli moddalarning filtrlash va kislorod ishlab chiqarish orqali atmosferani tozalaydi;

Aholini yuqori sifatli meva va rezavor mahsulotlar bilan ta'minlaydi;

Sanoat sohasi uchun xomashyo bazasini shakllantiradi hamda eksport salohiyatini oshiradi.

Bu maqsadlarga erishish, birinchi navbatda, qishloq xo'jaligida ilmiy tadqiqotlar natijalarini amaliyotga joriy qilish, bog'dorchilikning ilmiy asoslangan rivojlanish modelini ishlab chiqish va tizimli tatbiq etish orqali mumkin bo'ladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. - Тошкент: "Ўзбекистон" НМИУ, 2017. – 56 б.
2. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. - Тошкент: "Ўзбекистон" НМИУ, 2017. – 48 б.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 14-martdagi "Meва-sabzavotchilik sohasida qishloq xo'jaligi kooperatsiyasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4239-son qarori.
4. Россиялик олим В.Н. Jigjitovaklasterra оид yondashuvi asosida hududning innovatsion rivojlanishini boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish
5. З.А. Хакимов. Енгил саноат корхоналари рақобатбардошлигини маркетинг стратегиялари асосида ошириш. иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертацияси. Т, 2018
6. Ergashov, U. Z., & Boboyev, S. X. (2023). ILMIY TADQIQOTLARDA QISHLOQ XO'JALIGI KLASTERLAPINING O'RGANILISHI. Academic research in educational sciences, 4 (SamTSAU Conference 1), 820-831.
7. Murtazayev O., Axrorov F. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti. – Т.: ILM-ZIYO, 2017.
8. Barqaror qishloq xo'jaligi va qishloq taraqqiyotiga ko'maklashish: Agenga 21. Rim: FAO, 1996. – 158 b.
9. Кудашкин А.С. Условия устойчивого развития садоводства в экологически чистой зоне / А.С. Кудашкин, А.И. Колобова // Тр. Кубан. гос. аграр. ун-та. – 2008. – № 1 (10). – С. 48-52
10. Ergashov, U. Z. (2022). MEVA-SABZAVOTCHILIK VA UZUMCHILIK TARMOG 'INI YANADA RIVOJLANTIRISH, SOHADA YARATILAYOTGAN QO 'SHIMCHA CHORA-TADBIRLARNING IQTISODIY AHAMIYATI. Academic research in educational sciences, (Conference), 211-217.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>